



AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING KOGNITIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY AHAMIYATI

Matberdieva Yulduz Bayramdurdievna
*Nukus innovatsion instituti,
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrası assistenti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida aksiologik yondashuv asosida kognitiv tafakkurni, intellektual va shaxsiy fazilatlarni samarali rivojlantirishga erishishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan asosiy tamoyillar va usullar ko‘rib chiqilgan. Aksiologik yondashuvning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishdagi samaradorligi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholashi, kreativ fikrashi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: qadriyat, aksiologik yondashuv, kognitiv tafakkur, kognitiv qobiliyatlar, kritik fikrlash, motivatsiya.

ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. В статье рассматриваются основные принципы и методы, позволяющие добиться эффективного развития когнитивного мышления, интеллектуальных и личностных качеств учащихся младших классов на основе аксиологического подхода. Проанализирована эффективность аксиологического подхода в развитии когнитивных способностей учащихся начальной школы, а также его значимость в формировании у учащихся самооценки, творческого мышления и социальных навыков.

Ключевые слова: ценность, аксиологический подход, когнитивное мышление, когнитивные способности, критическое мышление, мотивация.

PRACTICAL SIGNIFICANCE OF DEVELOPING STUDENTS’ COGNITIVE ABILITIES BASED ON AN AXIOLOGICAL APPROACH

Abstract. The article examines the basic principles and methods that allow achieving effective development of cognitive thinking, intellectual and personal qualities of primary school students based on the axiological approach. The effectiveness of the axiological approach

in developing the cognitive abilities of primary school students, as well as its importance in the formation of self-esteem, creative thinking and social skills in students is analyzed.

Key words: value, axiological approach, cognitive thinking, cognitive abilities, critical thinking, motivation.

KIRISH

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, u bolaning shaxsiyatini shakllantirishga va keyingi ta’lim olishining muvaffaqiyatlari kechishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Kognitiv qibiliyatlar bilish faoliyatida muhim o‘rin egallab, nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirish, mantiqni rivojlantirish, olingan bilimlarni turli xil hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish, umumlashtirish va qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishni ta’minkaydi. Ushbu qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim sohasidagi zamонавиy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. O‘quv faoliyatini tashkil etishda o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olish, o‘qitish usullarini takomillashtirish [1] ham o‘quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

So‘nggi yillarda ta’lim sohasidagi tadqiqotlar maktab o‘quvchilarida bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan turli yondashuvlar va nazariyalarni birlashtirishga qaratilgan bo‘lib, ular orasida aksiologik yondashuv alohida ahamiyatga ega. Pedagogikadagi aksiologik yondashuv dunyoviy qadriyatlarni idrok etishga, axloqiy fazilatlarni egallahsga va bilim olish motivatsiyasiga qaratilgan. Kognitiv rivojlanish sohasida ushbu yondashuv o‘quvchilarda nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirishga, balki turli muammolarni hal qilishga mazmunli yondashishga yordam beradigan qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirishga qaratilgan. Kognitiv jarayonlar va qiymat yo‘nalishlarining bunday o‘zaro ta’siri o‘rganish sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Aksiologik yondashuvning ta’lim jarayonida o‘quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli haqida ko‘plab ilmiy ishlar mavjud. Aksiologik yondashuv, o‘quvchilarining shaxsiy, axloqiy va ma’naviy rivojlanishini ta’minalash bilan birga, ularning kognitiv (bilish) qobiliyatlarini ham shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarni faqat bilim bilan emas, balki ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni bilan ham boyitishni maqsad qiladi.

V.Tugarinov aksiologik yondashuvni ma’lum bir jamiyat va shaxs uchun zarur bo‘lgan, ularning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ob’ektlar, hodisalar va ularning xususiyatlarini o‘z ichiga oladigan vosita sifatida tavsiya etadi [3. 71]. Qadriyatning mohiyati narsa, g‘oya, bilimning inson va jamiyat uchun ahamiyati bilan belgilanadigan funksional mavjudligidadir.

Qadriyat sub’ektiv va faoliyat bilan bog‘liq holda vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradigan, ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega, shaxsiy xususiyatlarni belgilaydigan, turli sub’ektlar uchun turli xil ahamiyatga ega tushuncha [5]. Yosh avlodga aksiologik yondashuv asosida ta’lim-tarbiya berishda qadriyatlarning ushbu xususiyatlari hisobga olinishi zarur.

Ta’limda aksiologik yondashuvning imkoniyatlarini o‘rganish va zamonaviy jamiyatda undan foydalanish, hayot uchun zarur bo‘lgan qadriyatlar tizimini, ularni shaxsda kichik maktab yoshidan boshlab maqsadli shakllantirish yo‘llari va mexanizmlarini aniqlash va asoslash masalalari bilan A.Kiryakova [2], V.Slastenin [3], V.Tugarinov [4] kabi olimlar shug‘ullanishgan. Aksiologik yondashuvni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u faqat tadqiqot muammolarini hal qilishda ilmiy tadqiqotning mazmuni, asoslari va yo‘nalishlarini belgilab beruvchi madaniy yondashuv bilan birgalikda qo‘llanilishi mumkin [5].

Ko‘plab tadqiqotchilar ta’limda aksiologik yondashuvning o‘quvchilarning fikrlash va idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishini ta’kidlashgan. Jumladan, Sh.Keldiyov (2013) o‘quvchilarning axloqiy ongini shakllantirishda aksiologik yondashuvning rolini muhim deb hisoblagan va bu jarayonda kognitiv qibiliyatlar bilan birga, shaxsning eaxloqiy va ma’naviy tuyg‘ularining ham rivojlanishini ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, aksiologik ta’lim nafaqat bilim olishni, balki axloqiy qadriyatlarni tushunish va ularni amalda qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi. Bu esa o‘quvchilarning analistik va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Aksiologik yondashuv ta’limda individual xususiyatlarga asoslanishi, o‘quvchining shaxsiyatini rivojlantirishga qaratilishi bilan ta’limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. V.Zaxarchenko (2016) o‘zining ilmiy ishlarida aksiologik yondashuvni ta’limning maqsad va vazifalarini belgilashda, o‘quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribalarini hisobga olishda muhim ahamiyatga ega deb hisoblagan. U o‘quvchilarni qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy-psixologik omillar bilan tanishtirish orqali ularning kognitiv qobiliyatlarini samarali rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatgan.

Bundan tashqari, aksiologik yondashuvning kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga ta’sirini o‘rganishda, o‘qituvchilarning pedagogik mahorati ham muhim omil hisoblanadi. Xususan, J.Simyonov ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning aksiologik yondashuvni qo‘llash borasidagi uslublari o‘quvchilarning fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi deb hisoblaydi.

Shuningdek, aksiologik yondashuvni ta’limda samarali qo‘llash orqali o‘quvchilarda individual o‘rganish motivatsiyasini oshirish ham mumkin. A.Maslov o‘zining tadqiqotlarida aksiologik yondashuvni o‘quvchilarni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan strategiya sifatida tadqiq qilgan. Unga ko‘ra, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan hurmati, o‘z qadriyatlariga nisbatan hurmat va boshqa shaxslarning qadriyatlariga nisbatan ongli munosabati ularning kognitiv faoliyatini faol va samarali tarzda rivojlantiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida aksiologik yondashuvga asoslangan kognitiv tafakkurni rivojlantirish metodikasi ta’limning qadriyatga asoslangan yondashuvidan foydalanishni o‘z ichiga oladi, bunda asosiy e’tibor bolalarda nafaqat kognitiv qobiliyatlarni, balki bilish jarayonida qadriyat yo‘nalishlarini ham rivojlantirishdir. Aksiologiya qadriyatlar haqidagi fan sifatida nafaqat bilim olishda, balki bolalarning ichki motivatsiyasi va shaxsiy qadriyat yo‘nalishini rivojlantirishda ham ta’limning ahamiyatini ko‘rishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, aksiologik yondashuv metodologiyasining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

1. Bilim olishga qadriyatli munosabat – talabalar bilimning nafaqat amaliy, balki madaniy, axloqiy va shaxsiy qadriyatga ega ekanligini anglab yetishlari kerak. Bu o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

2. Faoliyatga asoslangan yondashuv – ta’lim o‘quvchilarning faol bilish faoliyatiga asoslanishi kerak. Bu jarayonda bolalarning nafaqat aqliy, balki shaxsiy fazilatlarini ham rivojlantiradigan mustaqil tadqiqot, muammoli vaziyatlarni hal qilish va yangi bilimlarni kashf etishga qaratilgan vazifalar muhim rol o‘ynaydi.

3. Refleksiyaga e’tibor qaratish – o‘quvchilar o‘z harakatlari, qarorlari va xohishlarini tushunishni, ularni qadriyat yo‘nalishlari va shaxsiy tajribalari bilan bog‘lashni o‘rganishlari kerak, bu esa bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi.

4. Bilim orqali axloqiy qadriyatlarni shakllantirish – o‘quv materiallari odob-axloq, tarbiya masalalarini ham qamrab olishi kerak, bu o‘quvchilarga nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishga, balki ularning hayoti uchun to‘g‘ri qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi.

5. O‘qituvchining roli – o‘qituvchi nafaqat bilim manbai, balki o‘quvchini ta’lim va bilimning qadr-qimmatini anglashga yo‘l ko‘rsatuvchi qadriyat yo‘l-yo‘riqlarining yo‘naltiruvchisi sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotimiz davomida o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatları va ta’lim jarayoniga bo‘lgan munosabatlarını o‘rganish maqsadida so‘rovnomalar va anketalar olindi, pedagoglar va o‘quvchilar bilan intervylular o‘tkazildi. Shu orqali o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar va o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan aksiologik yondashuvalar haqida ma’lumotlar yig‘ildi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf darslarida aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning bilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi amaliy ishlari (muammoli vaziyatlar, interfaol metodlar, mulohazalar) dan foydalanildi:

1. O‘qish darslarida bolalardan asar qahramonlarining xulq-atvorini axloqiy qadriyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilish. Ularning harakatlarida nima yaxshi va nima yomon? Qahramonning o‘rnida siz nima qilgan bo‘lar edingiz?

2. Matematika darslarida nafaqat mantiqiy fikrlashni, balki vaziyatniadolat yoki jamiyat uchun foydalilik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishni ham talab qiladigan masalalardan foydalanish.

3. Tabiiy fanlar darsi doirasida tabiatning ahamiyati, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun har bir o‘quvchi nima qilishi mumkinligini muhokama qilish.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda aksilogik yondashuvning ahamiyati o‘rganildi va bu metodlarning samaradorligi baholandi. Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatining o‘sishi: aksilogik yondashuvni tatbiq etish orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, masalalarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari sezilarli darajada yaxshilandi. Bu o‘quvchilarga nafaqat ilmiy predmetlarni o‘rganishda, balki hayotiy vaziyatlarda ham dolzarb muammolarni hal etishda yordam beradi.

Emotsional va ijtimoiy intellektning rivojlanishi: aksilogik yondashuvning amaliy jihatni o‘quvchilarning emotsiyonal intellektini va ijtimoiy munosabatlarini yaxshilashga ham yordam berdi. O‘quvchilar o‘rtasida hamjihatlik, hamkorlik va o‘zaro hurmatning kuchayishi kuzatildi, bu esa o‘z navbatida ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Kreativlikning oshishi: aksilogik yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarning ijodiy va yangi g‘oyalarni ishlab chiqishdagi faoliyati oshganligi aniqlandi. Bu ularning bilimni amaliyotga tatbiq etishdagi qobiliyatlarini yaxshiladi.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholashi va motivatsiyasi: aksilogik yondashuvning ta’siri o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholashning oshishiga, shuningdek, o‘quv jarayoniga bo‘lgan ichki motivatsiyaning kuchayishiga olib keldi. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘qish jarayonida faol ishtirok etishini, o‘zining o‘quv faoliyatini rejorashtirish va boshqarishga qodirligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishida aksilogik yondashuvning samarasi yuqori bo‘lib, bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga, balki ularning emotsiyonal va ijtimoiy qobiliyatlarini ham shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, aksilogik yondashuvning o‘quvchilarning motivatsiyasi va o‘z-o‘zini baholashiga ta’siri tadqiqotda muhim o‘rin tutdi. O‘quvchilarda o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ichki motivatsiyaning kuchayishi o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, bu esa o‘z navbatida, ta’lim jarayonining yaxshilanishiga olib keladi. Bu metodlarning amaliyotga tatbig‘i o‘quvchilarni nafaqat bilim olishga, balki o‘zining intellektual, emotsiyonal va ijtimoiy rivojlanishini ham rag‘batlantiradi.

XULOSA

Aksilogik yondashuv ta’limda nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini, balki ularning ma’naviy va axloqiy qobiliyatlarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu yondashuv o‘quvchilarning tahliliy fikrlash, ijodiy qarorlar qabul qilish, tanqidiy tafakkur va ijtimoiy mas’uliyat kabi muhim kognitiv qobiliyatlarini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu sababli, aksilogik yondashuv o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim texnologik vosita sifatida qaralishi kerak. Ta’lim jarayonida aksilogik yondashuvning qo‘llanilishi, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ma’naviy xulq-atvor va axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ularning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, aksilogik yondashuv assosida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish texnologiyasi nafaqat ilmiy pedagogik jarayonni takomillashtirish, balki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamiyatda muvaffaqiyatli va ma’naviy jihatdan boy shaxslar bo‘lib shakllanishiga katta hissa qo‘sadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni
2. Кирьякова А.В. Теория ориентации личности в мире ценностей: монография / А.В.Кирьякова. – Оренбург: РИО Оренбург. гос. пед. ин-та, 1996. – 188 с
3. Сластенин В.А. Общая педагогика: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.А.Сластенин, И.Ф.Исаев, Е.Н.Шиянов; под ред. В.А.Сластенина. – В 2 ч. – М.: ВЛАДОС, 2003. – Ч. 1. – 288 с
4. Тугаринов В.П. О ценностях жизни и культуры / В.П.Тугаринов. – Л.: ЛГУ, 1960. – 156 с
5. Яковлев Е.В. Педагогическое исследование: содержание и представление результатов / Е.В.Яковлев, Н.О.Яковleva. – Челябинск: Изд-во РБИУ, 2010. – 316 с